AN'ANAVIY QO'SHIQ IJROCHILIGI BEZAKLARINI NOTA YOZUVIDA IFODALASH VA *O'*ZLASHTIRISH USLUBIYATI

Maxammadaliyeva Dilnavoz, Suyarova Zarifa
Respublika musiqa va san'at kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada An'anaviy qo'shiq ijrochiligi bezaklarini nota yozuvida ifodalash va o'zlashtirish uslubiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qo'shiq, nota, ijro.

Ma'lumki, o'zbek an'anaviy qo'shiq ijrochiligi qadim-qadimdan avloddan avlodga ustoz-shogird an'anasi orqali og'zaki ravishda o'tib keldi va mahalliy uslublar zaminida rivoj topdi. Darhaqiqat, an'anaviy qo'shiq ijrochiligining eng yorqin xususiyatlari ana shu yo'nalishda uzil-kesil shakllandi. Musiqashunos olim, maqom asarlarini amaliy va nazariy yoritib bergan san"atshunoslik fanlari doktori Is„hoq Rajabovning yozishicha, "Shashmaqom bir qolipda qotib qolmadi, jamiyatning badiiy-estetiktalablari va tarixiy sharoitga qarab o'zgarib, rivojlanib, boyib, bir avloddan ikkinchisiga o'tib, takomillashibbordi".
Shuningdek, san'atshunos olim M.Mullaqandov o'zining ilmiy tadqiqotida "Ishkami" (diafragmani ichkari qorin bo'shlig„i orqali), "Guligi" (tomoq orqali), "Binigi" (burun orqali) ashula aytish uslublarini yoritib bergan. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, musiqa o'quv yurtlarida an"anaviy qo'shiq ijrochiligini amaliy o'zlashtirish borasida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Professional musiqa ta"limi tarmoqlari zimmasiga tushayotgan jiddiy talablar yanada mukammalroq, amaliy ijroga, o'quvga mos keladigan bezakli nota yozuvlarini ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Bu mas'uliyatni mukammal bajarish uchun oliy va o'rta san'at o'quv yurtlari va bolalar musiqa va san"at maktablariga moijallangan serqirra jabhalarini, jilolarini aks ettiruvchi ixtisoslashgan o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratib nashr ettirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasbetmoqda.

Xususan, an'anaviy qo'shiq ijrochilari qalblarni to'lqinlata oladigan ijroda nozik va nafis to'lqinlantirish, o'rama, nolish, zangula, hang kabi bezaklarni o'z ijrochiligida tadbiq qilishi mumkin. An"anaviy qo'shiq ijrochilari ushbu qiyinchiliklarni tinimsiz mehnat va mashqlar yordamida bartaraf etib, o'z ijrochilik ko'nikmalari bilan boyitib, an"anaviy ijro ko'nikmalari bezaklarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasini uddalashlari lozim.

Xonandaning zarur ijro ko'nikmalaridan biri to'lqinlantirish ovozni pardaning o'zida tebratish yo'li bilan hosil qilinadi. Ushbu bezak to'lqinsimon chiziq bilan ifodalanib, nota ustiga yoziladi. Shuningdek, ushbu bezakdan butun, yarimtalik va nimchorak notalarni ijro etganda foydalanish mumkin.

Ushbu an'anaviy ijro bezak tovush balandligi legato yordamida bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg„alib o'tish yo'li bilan vujudga keladi. O'rama bezagi ko'rsatkich chiziqlar bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabiy Yu. “O‘zbek xalq musiqasi” V-tom. O‘zbekiston davlat badiy adabiyoti.T.,1959 .
2.Rajabiy Yu. “Shashmaqom tarixi I-VI”.Badiiy adabiyot nashriyoti. T., 1970

WORDLY KNOWLEDGE